



ISSN: 2181-7774

1 (19) 2025

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI



**ВЕСТНИК АГРАРНОЙ НАУКИ
УЗБЕКИСТАНА**

**BULLETIN OF THE AGRARIAN
SCIENCE OF UZBEKISTAN**

Po'latov S.M., Xashimova M.R. <i>Datura innoxia</i> mill o'simligi bargining tarkibidagi npk miqdorlariga azotli o'g'itlarning shakl va me'yorlarini qo'llashning ta'siri.....	92
Narimanova N.A., Po'latov S.M. Boshlang'ich manbalar va fi o'simliklarda morfo-xo'jalik klaster tahlili.....	95
Eshpo'latov N.M., Yusupov Sh. B., Qodirov J.U., Qurbonazarov S. E. Hidroponika usulida uzum yetishtirish.....	98
Abdullayeva Y.U., Po'latova M.B., Norqulova O.N. Murasiga-skuga ozuqa muhitida turli o'simlik namunalari o'stirish usullari.....	100
To'shamatov A.M., Namazov Sh.Э., Tuxliyev M.P. Мураккаб дурагайлаш орқали олинган F ₃ дурагайларида тола чикими ўзгарувчанлиги.....	103
Буриева М.Р., Абдулмянова Л.И., Нуралиева Х.А. Каттик фаза ферментация технологиясини қўллаш орқали эндофит замбруглардан меланин пигментини ажратиб олиш.....	104
Хўжакулова С.Р., Жўраев Д.Т., Жўраев С.Т. Юмшоқ бугдой селекцияси ёрдамида донда темир микдори юкори нав ва тизмаларни танлаш.....	108
Орипов Ш.Х. Лалмикор ерларнинг кир адирлик минтақаларида мойли зигир селекцияси бўйича олинган асосий натижалар.....	110
Жўраев М.А. Лалмикор майдонлар учун юмшоқ бугдойнинг стресс омилларга чидамли янги кузги «Грекум-2003» нави.....	112
Mevachilik, sabzavotchilik va polizchilik	
Ахмедова М.А., Дусмуратова С.И. Влияние обработки семян арбуза различными препаратами на развитие и урожайность растений.....	115
Ганижонов Д.И., Исмаилов О.Ю. Кинематическое уравнение состояния-уравнение, описывающее кинематическое уравнение состояния в виде.....	117
Boyto'rayeva F., Janakova D.U. Yupiter navi (<i>Vitis vinifera</i> L.) g'ujumlarini gullashdan keyingi muddatda donalab siyraklashtirish va uning uzum boshi hamda g'ujumlar tuzilishi va tarkibiga ta'siri.....	121
Ballasov B.M., Faxrutdinov M.Z., Jo'raev S.T. Apelsin ko'chatini yetishtirish texnologiyasi.....	124
Hojiyev S.S., Komilova M.A. Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida tarvuzning erta va o'rtapishar navlarining o'sish, rivojlanish va hosildorligini o'rganish.....	128
Абдураманова С., Агзамходжаев Ж., Турдалиева О. Сорта цитрусовых для выращивания в широких траншеях Узбекистана.....	131
Турдиева Ф.Т. Бамиянинг биологияси ва етиштириш технологияси.....	134
Эрматов А., Мирзахидов У., Абдураманова С. Фенофазы и урожайность сортов груши.....	135
Юлдашева Х.Т. Зайтун ўсимликларида ҳосил элементларининг шаклланиши.....	137
Tuproqshunoslik va agrokimyo	
Kadirova D.N., Choriyeva M.B. surxondaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilgan noyob zanjabil ildizpoyasi tarkibidagi flavonoidlar miqdoriga mineral o'g'itlarning ta'siri.....	139
Kadirova D.N. Noyob zanjabil ildizpoyasi tarkibidagi oqsil miqdoriga mineral o'g'itlarning ta'siri.....	141
Boboyev F.F. Och tusli bo'z tuproqlarning mexanik tarkibi va qo'llaniladigan agrotehnologik usullar.....	144
Sattarov J.S., Mahammadiyev S.Q., Maxkamova D.Yu., Nematullayeva L. S., Asilbekova Sh.M., Karimova S.S. Triticale etishtirishda mineral o'g'itlar me'yorini tuproq geokimyoviy tarkibiga ta'siri.....	146
Махкамова А.Ш. Влияние рельефа на распределение агрохимических показателей орошаемого типичного серозема.....	151
Шокиров Б.Қ. Қашқадарё гарбий қисми суғориладиган шўрланган майдоналарининг ҳозирги замон гидрогеологик шароитлари.....	153
Jabbarov Z., Nomozov U. Orol dengizi qurigan tubining sharqiy qismining tuproq-guruntlarining mexanik tarkibi.....	156
Xalikov B.M., Ganiyev S.E. Tuproqning sho'rlanish ko'rsatkichlarini o'zgarishiga siderat ekinlar va mineral o'g'itlar me'yorlarining ta'siri.....	160
To'ychiyev Sh.Sh. Qarshi tumanining o'tloqi taqirsimon tuproq xossalarini yaxshilashda mahalliy o'g'itlardan samarali foydalanish yo'llari.....	162
Хайриддинов А.Б. Развития геотермальной энергетики.....	164
Хайриддинов А.Б., Навитов J.T. Taqirsimon va taqirli - o'tloqi tuproqlarning xossalarini o'rganish.....	166
Юсупов Х., Юсупов Н.Х. Типик лалми бўз тупроқларда экиш технологиялари ва ўғитларнинг тупроқдаги нитрат азоти (N-NO ₃) динамикасига таъсири.....	167
Разаков А.М., Мадримов Р.М. Эколого-генетические особенности и эволюция серо-бурых почв при орошении на примере плато устюрт и ташсака.....	169
Dehqonchilik va melioratsiya	
Тошпулатов Ч.В. Тупроқ шўрини ювишни ўз муддатда ўтказиш юкори ҳосил гарови.....	177
Газиёв У.Л. Турли катор ораси ва суғориш тартибда гўза навлари ўсиш ривожланишининг ҳосилдорликка таъсири.....	179
Kamalov A.K., Abduraxmonov Sh.X., Rizayev K.A. O'zbekistonning suv boyliklari va ulardan samarali foydalanish.....	181
Rajabova N., Sherimbetov V. Monitoring and assessment of tap water and groundwater quality by total dissolved solids (tds) ranges.....	183
Rajabova N. Assessment of groundwater quality: historical and fundamental approaches.....	188
Mavlanov L.B. To'g'li mintaqalarda xantal yetishtirishga ekish muddati va me'yorlarining ta'siri.....	191
To'xtashev B.B. Suv tanqisligini yumshatishda -erta bahordagi muhim tadbir.....	193

кўсақлар сони 10,3 дона, очилган пахталар сони 5,2 донани, очилиш даражаси 44,2 фоизни ташкил этди. Сугориш олди тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 65-70-65 % сугориш тартибида ва қатор ораси 76 см бўлганда кўсақлар сони 11,2 донани, очилган пахталар сони 6,2 донани, очилиш

даражаси 52,7 % ташкил этиб, худди сугориш тартиби ва қатор ораси 90 см бўлганда кўсақлар сони 11,4 дона, очилган пахталар сони 6,3 донани, очилиш даражаси 53,6 фоизни ташкил этди.

1-жадвал

Вар.№	Ўза навлари	Сугориш тартиби ЧДНС га нисбатан, %	Қатор оралиғи, см/га	1-3-июнь		1-3-июль				1-3-август				1-3-сентябр		
				Бўй,см	Чин барг, дона	Бўй,см	Ҳосил шохи, дона	Ҳосил элменти, шона, дона	Ҳосил элменти, гул, дона	Бўй, см	Ҳосил шохи, дона	Қўсақ, дона	Ҳосил элменти, дона	Қўсақ, дона	Ш.ж. очилгани, дона	Очиллиш даражаси, %
1	Султон	70-75-70	90	13,3	3,6	34,4	4,1	5,6	0,0	56,4	9,9	6,6	5,9	11,1	2,1	17,9
2		70-75-70	76	13,5	3,2	34,3	4,2	5,6	0,4	55,6	9,8	5,7	5,8	10,8	2,3	19,6
3		65-70-65	76	13,6	3,5	33,5	4,4	7,9	0,5	57,0	10,8	8,6	7,3	13,9	3,5	29,8
4		65-70-65	90	13,7	3,5	33,2	4,1	5,5	0,1	58,3	10,1	7,2	5,3	13,7	3,2	27,2
5		70-75-70	90	15,3	4,1	39,9	4,4	6,9	0,4	31,2	10,0	6,5	5,2	10,6	2,7	23,0
6	Гулистон	70-75-70	76	15,6	4,4	38,4	4,6	7,3	0,3	61,4	10,5	6,7	5,5	11,1	2,6	22,1
7		65-70-65	76	15,6	4,4	39,7	4,9	7,5	0,5	61,6	10,7	8,9	7,7	14,0	3,9	33,2
8		65-70-65	90	15,7	4,6	38,1	4,1	5,0	0,0	61,3	9,0	6,0	5,2	10,7	3,7	31,5
9	С-8290	70-75-70	90	13,6	3,3	33,0	4,7	7,8	0,6	58,1	11,1	8,5	8,2	13,9	4,8	40,8
10		70-75-70	76	13,4	3,4	33,2	4,2	6,1	0,0	58,3	10,1	7,5	7,0	10,3	5,2	44,2
11		65-70-65	76	13,2	3,2	33,6	4,3	6,3	0,1	58,4	9,4	7,3	7,1	11,2	6,2	52,7
12		65-70-65	90	13,3	3,5	33,4	4,3	5,2	0,1	57,3	10,0	7,2	6,9	11,4	6,3	53,6

Хулосалар: Шуни инобат га олмоқ керакки, ўзанинг ўсиши ва ривожланиши, ундаги ҳосил шохлари, ҳосил элементлари, кўсақлар сони ҳосилдорликда муҳим аҳамиятга эга. Тадқиқотларимизда “Гулистон” ўза навининг сугориш олди тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 65-70-65 % ва қатор ораси 76 см бўлган вариантимида фенологик кузатувларимиздан олинган маълумотлар

асосида ҳосилдорлик бошқа вариантларга нисбатан юқори бўлиб 40,0 ц/га ташкил этди. “С-8290” навимизда эса сугориш олди тупроқ намлиги ЧДНС га нисбатан 70-75-70 % ва қатор ораси 90 см бўлган вариантимида бошқа вариантларга нисбатан юқори бўлиб, ҳосилдорлик 42,1 ц/га эканлиги кузатилди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари ЎзПИТИ. Тошкент, 2007 й. –Б. 1-46.
2. Мирзажанов К.М., Сатипов Ғ. – Чигит қайси эгат оралиғида экилгани маъқул. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. Тошкент, 2001. №2. –Б. 38-39.
3. Назаров Р., Тожиёв М. Мўл ҳосилга замин //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали – Тошкент, 2006. №5. –Б. 2.
4. Раҳмонкулов С., ва бошқалар. Табиий гармсел шароитида ўзанинг “Истиклол-14” навини сугориш муддатлари ва меъёрлари. //Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги журнали агроилм илмий иловаси. Тошкент, 2019 й. -№ 6. (63). –Б. 20-21.
5. Тешаев Ф., ва бошқалар. Ўза парваришида муҳим давр. //Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги журнали. Тошкент, 2019 й. -№ 5. Б-6-7.
6. Шамсиев А., ва бошқалар. Ўзани муддатида сугориш мўл ҳосил гарови. Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги журнали 6-сон 2022 йил Б-14-15.

YŲT: 631.459/5+631.816.1

Kamalov Azatbay Kamolovich
TIQXMMI MTU, q.x.f.n (97 274 18 58)
Abduroxxmonov Shavkatjon Xasanovich
TIQXMMI MTU, PhD (90 963 36 18)
Rizayev Komiljon Akbarali o'g'li
“TIQXMMI” MTU talaba (93 086 66 68)

O'ZBEKISTONNING SUV BOYLIKLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasining suv resurslari bilan ta'minlanganlik holati qay darajada ekanligi, hozirgi kunda yurtimizdagi daryolar va ular orqali qurilgan suv omborlarining keltirayotgan foyda va zararlari, qishloq

O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

xo'jaligida suv sarfini kamaytirish uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar, xalqimizni ichimlik suvidan foydalanish madaniyatini rivojlantirish kerak ekanligi aks holda kelajakda bizning kutib turgan muammolar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Suv resurslari, daryolar, ko'llar, suvdan oqilona foydalanish rejimi, erroziya, transchegaraviy daryolar, optimal yechim, suvdan foydalanish madaniyati.

Аннотация. В статье приведены сведения о какой степени находится состояние обеспеченности водными ресурсами Республики Узбекистан, в настоящее время имеющиеся реки и приводящие польза и вред построенные с их помощью водохранилища, необходимые работы для уменьшения расхода воды в сельском хозяйстве, необходимости развития культуры пользования питьевой воды населением и ожидаемой нас проблеме в будущем.

Ключевые слова. Водные ресурсы, реки, озер, режим эффективного использования воды, трансграничные реки, оптимальное решение, культура пользования воды.

Annotation. The article provides information about the state of water resource availability in the Republic of Uzbekistan, currently existing rivers and the resulting benefits and harms of the reservoir built with their help, the necessary work to reduce water consumption in agriculture, the need to develop a culture of drinking water use by the population and the problem we expect in the future.

Key words. Water resources, rivers, lakes, efficient water use regime, transboundary rivers, optimal solution, culture of water use.

Kirish qismi. O'zbekistonning suv boyliklariga daryolar, ko'llar, muzliklar, yerosti suvlari kiradi. O'rta Osiyo yer osti suvlarining 12% O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi va ulardan ekinlarni sug'orish, aholi iste'moli, sanoat, davolash maqsadlarida foydalaniladi. O'zbekistonning suv boyliklari asosan tog'li rayonlarda shakillanadigan oqar suvlar va qisman yer ostki suvlaridan iborat. Tekisliklarda suvlarni tarqalib oqishi, tezligining pasligi, haroratning issiqligi, yerga singib ketish jarayoni natijasida suvning katta qismidan foydalana olmaymiz. Yurtimizni yirik suv ta'minotlari mavjud, bulardan Amudaryo eng sersuv daryo hisoblanadi uning uzunligi 2540 km, maydoni esa 309 ming km² bo'lib Tojikiston hududidan boshlanib biz bilgan Orol dengiziga quyiladi, qadimda arablar bu daryoni Jayxun deb atashgan.

Eng uzun daryo maqomini esa Sirdaryo egallagan bo'lib uning uzunligi 3019 km, maydoni esa 219 ming km², asosiy qismi Qirg'iziston Tyanshan tog'larida hosil bo'ladi. O'zbekistonning daryo suvlarining 20% Respublika hududida qolgan 80% qismi qo'shni davlatlarda shakillanadi, shuning uchun O'zbekiston daryolari transchegaraviy daryolar deyiladi. Tabiatda suv aylanishi tuproq shakillanishida, yer osti suvlariga, iqlim, havo haroratiga bo'lgan ta'siri juda katta. O'zbekistonda suv xo'jaligi uzoq va murakkab rivojlanishidan o'tib mustaqil xalq xo'jaligiga aylandi. Uning bosh vazifasi sug'oriladigan yerlarni, sanoat korxonalarini, yaylov yerlarini suv bilan ta'minlashdir. Yurtimizda sug'oriladigan ekinlar asosan sun'iy sug'orish tarmoqlari asosida olib boriladi. Biz to'plagan ma'lumotlarga qaraganda Respublika hududiga yiliga 95,642 km³ daryo suvlari oqib keladi. Shuning 52,921 km³ Amudaryo havzasiga, 43,351 km³ esa Sirdaryo havzasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston yiliga o'rtacha 57,781 km³ suv sarflaydi. Bu raqamlar bugungi kungi ma'lumotlardan biroz farq qilishi mumkin chunki kundan kun sug'oriladigan yer maydonlarining ortib borishi, sanoat korxonalarining suvga bo'lgan ehtiyoji hamda global isish daryo suvlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston hududida daryolarning oqib o'tish hissasi unchalik katta bo'lmasda Respublikamizda ko'llar va suv omborlari mavjud bo'lib eng katta tektonik ko'l Orolidir. 1960-yildan boshlab Respublika hududida katta va kichik suv omborlar qurish loyhalari amalga oshirilib ulardan eng birinchi Kattaqo'rg'on suvombori qurilgan. Hozirgi vaqtda yurtimizda 51 ta, shulardan 5 ta davlatlararo suv omborlari 28 ta selxona mavjud. Bular daryolarda suv oqib turishini 20-25 foizga oshirib turadi. Suvlarni yig'ish uchun esa 37 ta suvni yuqoriga ko'tarib turuvchi to'g'onlar, kuchli nasoslar o'rnatilgan. Respublikamiz hududida daryolarning potensial energiya resurslari 8,8 mln kVt bo'lib, O'rta Osiyo daryolari energiya resurslarining 13 foizini

tashkil qiladi. Respublikamizda gidroenergiya resurslaridan foydalanish maqsadida Chirchiq daryosida - Chorvoq, Xo'jakent, G'azalkent va boshqa GESlari qurilgan.

Muammoni qo'yilishi. Suv omborlarining qurilishi baliqchilik, energetika sohasiga, dam olish oromgohlarining barpo bo'lishi kabi ishlarni amalga oshirildi lekin, daryo suvlarini Orol dengiziga yetib bormasligi va yuzlab qishloqlar va o'n minglab gektar unumdor yerlarning suv ostida qolib ketishiga sabab bo'ldi. Aydarko'lga ma'lum vaqtlardan buyon suv tashlanmayotganligi suvning kamayishi va tuzlarning paydo bo'lishini tezlashtirmoqda. Qishloq xo'jaligida suv sarfining ko'pligi va to'g'ri foydalanish uslubiyati ya'ni ilmiy yondashuv yo'qligi uchun Respublikamiz hududining ba'zi joylarida suv tanqisligi kuzatilmoqda. Daryo suvlari orqali keladigan chirindi va ozuqaga boy loyqalarning barchasi suv omborlarida ushlab qolishi tiniq suvlar bilan ekinlarni sug'orish hosilni asta-sekin kamayishi va unumdor yerlarimizdan ajrab qolish xavfi oshib borishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari Amudaryodan kanal o'tkazishlariga oz fursat qolayotgan qo'shni davlat Afg'oniston bilan imkon qadar O'zbekiston manfaatlariga to'g'ri keladigan muzokara olib borilishi kerak aks holda Xorazim viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot uslubi. Tadqiqot olib borishda umumiy ilmiy metod va uslublardan: ma'lumotlarni yig'ish, ularni tahlil qilish, o'rganilayotgan ob'yektning bugungi kundagi holatini aniqlash, kelajakda sodir bo'ladigan voqea bashoratlarni tahlil qilish, umumlashtirish va boshqalaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Har yili butun suv omborlar yuzasidan 5 mlrd kubometr suv parlanib ketmoqda. Suv omborga yaqin hududlarda yer osti suvlarining ko'tarilishi, yerdagi sho'rlikni oshishi yoki botqoqliklarning ko'payishi, tuproqlarning daryolardan boradigan unumdor loyqalardan mahrum bo'lishi va buning natijasida tuproqlarning unumdorligi tushib uning ostki unumdor qatlami yemirilmoqda. Mutahassislarining tadqiqotlarining natijasida har yili sug'orish erroziyasi natijasida gektaridan 240-250 tonnagacha tuproq yuviladi. Bu bilan gektaridan 600 kg gumus, 100 kg azot, 150 kg fosfor va boshqa ozuqa moddalar yo'qoli ketmoqda. Andijon suv omborining qurilishi natijasida havoning va suvning haroratining pasayishi evaziga ekinlarning hosil yetilish vaqtining kechikishi va balki hosilning oldingidan harorati past suv bilan sug'orish natijasida hosil miqdorini 30-40% kamayishiga olib keldi.

O'zbekistonda suv iste'moli bo'yicha islohatlar o'tkazilishi kerak chunki, suv sarfi bo'yicha isrofgarchilik nafaqat qishloq xo'jaligida balki aholining iste'molida ham ko'plab kuzatilmoqda. Misol keltiradigan bo'lsak rivojlangan davlatlarda aholi jon boshiga suv sarfi kuniga 100-120 litr, Toshkentda esa

250-300 litrga to'g'ri keladi. Aholining maishiy xizmatlarga befarqlik bilan haddan ko'p suv sarflayotganli, tarmoqlarga yashirincha ulanib olishlar va tarmoq nosozlik vaqtida sutkalab suvning oqib turishi ichimlik suvidan noto'g'ri foydalanishga misoldir. Suv sarfini kamaytirish va uni to'g'ri taqsimlash uchun eng optimal yechimlardan biri tarmoqqa raqamli texnologiyalarni joriy etish nosoz va eski nasos stansiyalarini ta'mirlash yoki yangisiga almashtirish, xodimlarni ma'suliyatli bulishi va iste'molchilarning suvdan foydalaning madaniyatini oshirish kabi chora tadbirlarni faqat qog'ozda emas amalda joriy etish zarurdir. Qishloq xo'jaligi sohasiga yana bir nazar soladigan bo'lsak AQSH da suvdan oqilona foydalanish rejimiga ko'ra 1 m³ suvdan 6\$ mahsulot ishlab chiqarilsa O'zbekistonda 0,15\$ lik mahsulot ishlab chiqarilishini misol tariqasida ko'ramiz. Suvdan oqilona foydalanishda yevropa tajribalarini qo'llashimiz kerak chunki tomchilatib sug'orish orqali suv sarfini 40-60% gacha suv tejash mumkin.

Albatta bu tajribalar qo'llanilmoqda lekin qisman ko'pchilik fermer xo'jaliklari hali ham eski usuldan foydalanmoqda, biz xohlaymizmi yo'qmi 2030-yilga kelib suv tanqisligi nafaqat O'zbekiston balki Osiyo davlatlarida sezilarli darajada kuzatiladi, hozirgi kunda yer yuzida 2 mlrd inson toza ichimlik suvidan mahrum, bu raqamlar yaqin 6-7 yil ichida 4 mlrdga yetishi kutilmoqda, eng achinarlisi suv tanqisligi kuzatilishi bashorat qilinayotgan davlatlar ichida O'zbekiston ham bor va biz bu jarayonlarga tayyorgarlik ko'rishimiz kerak. O'zbekistonning suv muammolariga duch kelishiga faqat ichki tizim emas balki qo'shni davlatlarining ham ro'li sezilarli.

Qozog'istonning Chordara suv omboridan Aydarko'lga suv tashlanmasa bu ko'lni ham Orolni qismati kutmoqda. Janubda esa Afg'onistonning kanal qurayotganligi va uning yaqin vaqt

ichida ishga tushishi Amudaryo suvining keskin kamayishiga sabab bo'ladi. Bu muammolarning eng optimal yechimi qo'shni davlatlar bilan suv xo'jaligi borasidagi masalalarni o'zaro muzokara qilib olishlik, qishloq xo'jaligidagi suv tarmoqlarini betonlash orqali suv yerga shimilib isrof bo'lishini kamaytirish, ekin sug'orishda imkon qadar 100% tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimiga o'tish, suv omborlarining masalalarini qayta ko'rib chiqib mavsumiy vegetatsiya davrida qo'shimcha kanal orqali daryo suvlarini suv ombordan aylantirib o'tib ozuqaviy loyqalarni ekin maydonlariga yetqazish shu jumladan Orol dengiziga ham suv borishini ta'minlash, aholini suv ta'minotini raqamlashtirish va aholini ichimlik suv sarfi bo'yicha madaniyatini oshirib ichimlik suv sarfini kamaytirishimiz kerak. Ichimlik suvining taqchilligi evazidan iste'molga yaroqsiz suv iste'mol qilina boshlaydi so'ngra yosh bolalarda gepatit, yuqumli va infeksiyalik kasalliklarining paydo bo'lishi keskin ko'payadi. Agarda bu masalaga befarqlik qiladigan bo'lsak bizni kelajakda juda katta ijtimoiy va iqtisodiy muammolar kutib turmoqda.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasining suv resurslaridan foydalanishning eng optimal yechimini tez va qisqa fursatlarda tizimli ishlab chiqish va bu tizimni amalga oshirish, qishloq xo'jalik yerlarini tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlariga o'tkazish suv sarfini 40-60% tejatishi va ichki suv tarmoqlarini betonlash orqali suv shimilib ketishini oldini olishimiz mumkin. Shahar ichimlik suv ta'minotini raqamlashtirish orqali ko'plab muammolarni yechishimiz va shuningdek qo'shni davlatlar bilan manfaatli muzokaralar olib borib transchegaraviy daryolar orqali yurtimizga kirib kelayotgan suv resurslar ta'minotini mo'tadillashtirishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Muhammadjonov, A. Zokirov G'o'za agroteknikasi. Toshkent – "MEHNAT" – 1995
2. I.A. Xasanov, P.N. G'ulomov, O.SH. Ro'ziqulova O'zbekiston tabiiy geografiyasi /o'quv qo'llanma/. Toshkent – 2016
3. I. Soliev "O'zbekiston tabiiy geografiyasi"
4. Sh. Muradov, X. Valiyev, B. Xolboyev, R. Bozorov "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish" Toshkent – 2010
5. Internet tarmog'i – kun.uz saytidan
6. Internet tarmog'i - <http://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11733-ozbekistonning-ichki-suvlari-va-suv-boylklari.html> saytidan

UDC: 502.175:556.38.61

Rajabova Nilufar

PhD Student, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Uzbekistan, E-mail: ni.rajabova@nuu.uz, ORCID: [0009-0007-3394-3661](https://orcid.org/0009-0007-3394-3661)

Sherimbetov Vafabay

Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences, Head of the Department of Ecology, National University of Uzbekistan named after Mirza Ulugbek, Uzbekistan, E-mail: vafob_uz@mail.ru

MONITORING AND ASSESSMENT OF TAP WATER AND GROUNDWATER QUALITY BY TOTAL DISSOLVED SOLIDS (TDS) RANGES

This study is a study of total dissolved solids (TDS) in groundwater and rural water supplies formed at a depth of 10-20 meters in the Amudarya district of the Republic of Karakalpakstan. In this study, the TDS ranges in 1 liter of water have analyzed according to national and international standards. The main objective of the study is to assess the quality of two water bodies based on the TDS level and develop appropriate recommendations. The results of the analysis showed that the water supply had relatively better water quality only in January and December. During these periods, 33.33% of water taken from wells and 100% of rural water supplies have met the established guidelines.

Key words: Total Dissolved Solids (TDS), groundwater, rural tap water, water quality, human health issues, anthropogenic factors, environmental monitoring.